

## O'ZBEK MUSIQASIDA DOIRA CHOLG'USINING O'RNI

To'rayev Qahramon Fayzullayevich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
 "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası katta o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10836522>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada doira cholg'usining o'zbek musiqasidagi o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, o'zbek musiqa ijrochiligida keng qo'llaniluvchi doira cholg'usining tarixi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** milliy musiqa, doira cholg'usi, ritm, sozanda, doira ijrochiligi.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о роли дойры в узбекской музыке. Также обсуждается история дойра, который широко используется в узбекском музыкальном исполнительстве.

**Ключевые слова:** национальная музыка, дойра, ритм, музыкант, исполнительство дойры.

**Annotation:** This article provides information about the role of doira in uzbek music. The history of doira, which is widely used in uzbek musical performance, is also discussed.

**Key words:** national music, doyra, rhythm, musician, doyra performer.

Doira milliy cholg'ularimizning eng qadimiy va noyob turlaridan biri bo'lib, yillar mobaynida xalqimizning turmushi va mehnat faoliyatiga singib, insonlar madaniy hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Doira cholg'usining ijro imkoniyati hamda unda ijro etiluvchi usullarning rang-barangligi tinglovchini o'ziga jalb etadi.

Bir necha asrlardan beri o'zining betakrorligini yo'qotmay kelayotgan bebaho musiqiy boyligimiz "Shashmaqom"ning eng zarur unsurlaridan biri ham doira usullaridir. Maqom yo'llaridagi cholg'u va ashula bo'limining xarakterli tomonlarini ochib berishda doira usullari hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Maqomlarning tarkibida bo'lgan anchagina kuy va ashulalar variatsiya yo'li bilan ishlangan. Bunda esa doira usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu cholg'u o'zbek xalqining sevimli cholg'ularidan hisoblanadi. Shuningdek, tojik, uyg'ur xalqlarida ham keng tarqalgan. Doirada ijrosidagi usullar tizimi qadimdan shakllangan bo'lib, ustozlar tomonidan "bum", "bak", "bakko" yoki "bakka", Xorazmda "gup", "taq", "taqqa" atamalari bilan yuritilgan. Bunda "bum" nisbatan past tovush bo'lib, bunda to'rtta barmoqni birgalikda zich juftlab, membrana (teri) o'rtasiga urib ijro etiladi. "Bak" ham membrana o'rtasiga, faqat barmoqlar orasini ochgan holda urib ijro qilinadi.

Bizning zamonimizgacha doira usullarining bir qancha namunalari yaratilib, davrlar osha jilolanib kelmoqda. Usullar davrning ijtimoiy rivoji bilan birgalikda xalq ma'naviyati, madaniyatiga xizmat qilgan. Taraqqiyot rivojini e'tiborga olgan holda turli usullar ijod etilib, ijrochilik amaliyotida keng qo'llanilgan. Buning natijasida o'ziga xos, rang-barang usullar yuzaga kelgan. Hozirgi kunda o'zbek musiqa ijrochiligida bir qancha doira usullari qo'llaniladi. Ularni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- oddiy usullar: ijro jihatidan unchalik murakkab bo'lmagan, asosan, an'anaviy marosimlarda, qo'shiq va laparlarda qo'llaniladi.

- maqsadli usullar: ommani jalb etish, to'plash, diqqatni qaratish kabi muayyan ma'noga ega bo'lgan chaqiriq usullari;

- murakkab usullar: ya'ni xalq mumtoz musiqa ijodiyotida qo'llaniladigan usullar.

X-XVII asr musiqa risolalarida shu qoidaga asoslangan doira usullarining namunalari ko'plab keltiriladi. Bunda, asosan, uzun va qisqa bo'g'inlarning ifodasi bo'lgan undosh harflardan bo'g'inlar tuzilib, bo'g'inlar birikmasi esa she'r o'lchovlari va doira usullarining ruknlarini tashkil etadi.

Manbalarda keltirilishicha, birinchi yaratilgan musiqa usuli "Zarbul-qadim" ("Qadimiy zarb") deb ataladi. Bu usul inson tomirining urishidan olingan bo'lib, sodda "tan-tan" shaklida bo'lgan. Keyinchalik esa usullarning murakkabroq shakllari yuzaga kelgan. Masalan, "tana-tana", "tan-tan-tan", "tana-tana-tan" va hokazo. Bu usullar musiqa asarlari bilan birga yuzaga kelgan bo'lib, keyinchalik Sharq xalqlarida mustaqil doira usullari tarzida ajralib chiqqan.

Darhaqiqat musiqiy asar ijrosi paytida doirachi sahnadagi barcha ijrochilarning boshqaruvchisi hisoblanadi. Doirachining ijro etgan birgina usulidan kuyning tempi, ritmi ma'lum bo'ladi. Shu bois doirachiga katta mas'uliyat yuklanadi. Musiqiy asarning boshlanishidan yakuniga qadar doira ijrochisidan avvalo usulni bir maromda ushlab talab etiladi.

Tarixiy manbalarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, doira cholg'usi o'tmishda, xususan, zardushtiylik davrlarida ayollar orasida keng qo'llanilgan. Baxshi ayollar odamlarni davolashda, diniy marosimlarda doira cholg'usidan foydalanganlar. Bunday xususiyatlar shamanlar faoliyatida ham kuzatilgan. Ular ham inson tanasidan yovuz ruhlarni chiqarish, kasallikni davolash, olovga va ajdodlar ruhiga sig'inish, qurbonliklar qilish, zikrga tushish kabi turli marosimlarida doira chalganlar. Doiraning yangrashi o'tkazilayotgan marosim ruhini kuchaytirishga, ekstaz (jazavaga tushish) holatiga yo'naltirishga xizmat qilgan. O'sha davrlardagi ayrim marosimlar bugungi kunda ham chekka vohalarda o'z kuchini saqlab qolgan. Doira ijrochiligi vujudga kelishi, uning rivoji jarayonida yurtimizning har bir hududida o'ziga xos mahalliy ijrochilik uslublari shakllandi. Mazkur uslublarda har bir vohaning o'ziga xos xususiyatlari, e'tiborga molik tomonlari hamon o'z mohiyatini saqlab kelmoqda. Bularga Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Buxoro – Samarqand hududlariga xos ijrochilik uslublari misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, doira uzoq yillardan buyon musiqa amaliyotimizda qo'llanib kelinayotgan bo'lsa-da, uning milliy san'atimizdagi ahamiyati, ustoz-shogird an'analari hamda ijrochilik maktablari haqida ma'lumotlar yetarli emas. Bundan tashqari, doira cholg'usi va undagi ijrochilikning ommalashuvida mohir sozandalarning o'rni, ularning bu borada amalga oshirgan xizmatlari kani jihatlarni o'rganish, sohadagi mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish borasida tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

## References:

1. Akbarov I.A. "Musiqqa lug'ati". G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
2. Begmatov S, Matyoqubov M. "O'zbek an'anaviy cholg'ulari" – Toshkent: "Yangi nashr" nashriyoti, 2008-y.
3. Madrimov B. "O'zbek musiqa tarixi". O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Barkamol fayz media", 2018-y.
4. Samadov R. "An'anaviy doira ijrochiligi" – Toshkent: "Bilim" nashriyoti, 2004-y.

5. Vizgo T.S. “O’rta Osiyo musiqa cholg’ulari”. Tarixiy ocherk. M. 1980. Avdeyeva L. “O’zbek milliy raqsi tarixidan” – Toshkent: 2001 y.

